

MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.

Nuraliyev Suhrobiddin Panji O'g'li

SH.D.PI Biologiya yo'nalishi talabasi.

Nuraliyev978@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-2871-8558>

+998997777031

Annotasiya: *Mustaqil O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgandan so'ng I.A Karimovning Farmoni bilan, O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi, davlat madhiyasi, bayramlar to'g'risidagi, qonunlar qabul qilinganligi hamda unda olib borilgan islohotlar haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilganligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zi: *Konstitutsiyas, Mustaqillik, Integratsiya, modernizasiya, SSSR, kommunistik, parlament,*

XX asrning 90-yillari boshidagi O'zbekiston uchun "Kommunistik Partiyadan halos bo'lish", degan so'z Milliy mustaqillikka erishishning asosiy Sharti bo'lib qolgan edi. Shuningdek 1991 yilning 14 sentyabrida O'zbekiston kompartiyasining XXIII S'ezdi chaqirilib, unda Respublika Partiya tashkilotini tugatish masalasi hal etildi. Lekin bu jarayonlar ham silliq kechgani yo'q. Bu paytda hali ko'plab rahbarlar, partiya a'zolarining aksariyat qismida eski jamiyatning kuchli ta'siri sezilib turmoqda edi. Ular milliy mustaqillik g'oyasini anglashga yetilmagan, yangi tasavvurlarida—kapitalizmga—eng yomon tuzumga qaytish, deb tushunar va talqin etar edilar. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilindi. Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida „O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida“gi qaror va „O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari“ to'g'risida qonun qabul qilindi. Qaror bilan O'zbekiston SSR nomi ham O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. 1-sentyabr O'zbekistonning mustaqillik kuni deb belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, 5-sentyabrda Prezident I.A.Karimovning farmoni bilan O'zbekiston poytaxtining avvallari Vladimir Lenin nomi bilan atalgan markaziy maydoni Mustaqillik maydoniga o'zgartirildi. 1992-yil 3-iyulda „O'zbekiston Respublikasida bayramlar to'g'risida“gi 669-XII-sonli davlat qonuni qabul qilindi, unda bayram nishonlanadigan kunlar, jumladan, Mustaqillik kuni ham belgilandi. Qonun asosida o'sha paytda amalda bo'lgan Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar kiritildi.[1:58] 1992 – yil 2 – iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida <<O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi >> to'g'risida qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 1992 – yil 10 – dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida <<O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida“gi qonun qabul

qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulida qabul qilingan Bayram kunlari haqida»gi Qonunga va O'zbekiston Respublikasi Oliy 100 Majlisi 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksini 131-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram (dam olish) kunlari deb belgilandi:

1 - yanvar Yangi yil.

8 - mart Xalqaro xotin-qizlar kuni.

21 - mart Navro'z bayrami.

9 - may Xotira va qadrlash kuni.

1 - sentabr Mustaqillik kuni.

1 - oktabr O'qituvchilar va murabbiylar kuni.

8 - dekabr Konstitutsiya kuni. [2:88]

Ro'za Hayiti (Iyd al-Fitr) Diniy bayramning birinchi kuni. Qurbon Hayiti (Iyd al-Adha) Diniy bayramning birinchi kuni. Ko'ppartiyaviylik negizda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Davlatimizning jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilish strategiyasidan kelib chiqib, demokratik o'zgarishlarning huquqiy bazasini izchillik bilan mustahkamlay bordi. Shunday qilib Oliy Majlisning 1995-1999-yillarda 15 ta sessiyasi bo'lib, ularda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 460 dan ortiq qaror qabul qilindi, amaldagi deyarli barcha qonun hujjatlarining qo'llanish amaliyoti o'rganildi, qonunlarga 200 dan ortiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni tezlashtirish tarafdori ekanligini tasdiqlab, parlament 95 ta xalqaro bitim va shartnomani ratifikatsiya qildi, 43 ta xalqaro konvensiyaga qo'shilish to'g'risida qaror qabul qildi. Mustaqillik va ezgulik monumenti — Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoniaa O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov g'oyasi bilan bunyod etilgan me'moriy badiiy majmua. O'zbekiston istiqbolining dastlabki yillari (1992)da maydonda o'rnatilgan obida Mustaqillik monumenti deb atalgan. Ramziy ravishdagi Yer sharida O'zbekiston Respublikasi xaritasi aks etgan ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O'zbekiston mamlakati mustahkam o'rin olganini ifodalaydi. 2005-yil 28 dekabrda ushbu monument oldiga farzan-dini bag'riga bosib turgan munis o'zbek ayoli siymosi — Baxtiyor ona haykali o'rnatildi (haykaltarosh I.Jabborov). Mustaqillik monumenti va Baxtiyor ona haykali Ezgulik arkasi, oq poyonoz shaklidagi keng yo'lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi. Mustaqillik va ezgulik tushunchalarini ramziy tarzda uyg'un ifodalagan ushbu yodgorlik M. Vae.m. deb ataldi. [3- 78] O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2005 yil 28 yanvar) "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir" nomli ma'ruzasida mamlakat jamiyatini demokratlashtirish va yangilash kontsepsiyasining, shuningdek, mamlakatimizni 2005 yil va kelgusi davrda modernizasiya va isloh etish

bo'yicha asosiy vazifalarning dasturiy kontseptual yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur ma'ruzada mamlakatni modernizasiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari", degan tamoyilga asoslangan Islohotlarni yanada chuqurlashtirishning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilishi Lozim bo'lgan maqsad va vazifalar aniq va Ravshan ifoda etildi.[4: 100] "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l quyilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart". [5:92]

Xulosa qilib takitlaganda O'zbekiston Respublikasining kommunistik Partiyadan halos bo'lishi Respublika partiya tashkilotining tugatilish masalasi, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilinishi, O'zbekiston SSSR nomi O'zbekiston Respublikasi deb e'lon qilinishi, O'zbekiston poytaxtining Vladimir Lenin nomi bilan ataladigan markaziy maydoning o'zgartirilishi, O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi, bayrog'i, madhiyasi, bayram (dam olish) kunlari qonun qabul qilinganligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bunda mavzuga oid bir qancha adabiyotlarga tayanib xulosalar qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston Mustaqilligi kuni](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Mustaqilligi_kuni)
- 2 [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mustaqillik va ezgulik monumenti](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mustaqillik_va_ezgulik_monumenti)
- 3 Мырзаева P.X. Ba boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. . – T.:Akademiya 2010. 58 – bet.
- 4 Narzulla Jo'rayev., Mustaqil O'zbekiston Tarixi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbuot ijodiy uyi. Toshkent – 2013.
- 5 Oblomurodov N., Va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.